

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

KARIMOVA MADINABONU BAXROMJON QIZI

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING LIDERLIK SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Karimova Madinabonu Baxromjon qizi

Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik
sifatlarini rivojlantirish3

Каримова Мадинабону Бахромжон кизи

Развитие лидерских качеств директоров дошкольных образовательных
организаций в процессе повышения квалификации.....23

Karimova Madinabonu Baxromjon qizi

Development of leadership qualities of directors of preschool educational
organizations in the process of professional development.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....55

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

KARIMOVA MADINABONU BAXROMJON QIZI

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTI DIREKTORLARINING LIDERLIK SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.2.PhD/Ped5331 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.mdomoi.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshpo'latov Komil Abdusalomovich

iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ashurova Sanobar Yo'ldashevna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (DSc), professor

Badalova Ma'suda Umarovna

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "25" 09 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (98 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "25" 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil "25" 08 da 19 - raqamli reestr bayonnomas).


N.Sh.Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor
Sh.M.Otaqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi s.f.f.d. (PhD), dotsent
K.Dj.Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan global islohotlar va innovatsiyalar XXI asrda dunyo miqyosida ta'lim tizimida uzluksiz islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimi ham bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar, va boshqaruv metodologiyalarining yangilanishi direktorlarning rahbarlik ko'nikmalarini takomillashtirishni zaruriyatga aylantirmoqda. Mazkur islohotlar maktabgacha ta'limni boshqarishda innovatsion metodlar, samarali boshqaruv va pedagoglarga individual yondashuvni amalga oshirish uchun direktorlarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishni tizimli yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda.

Jahonda ta'lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati hamda maktabgacha ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining zamonaviy liderlik kompetensiyalariga ega bo'lishini talab qilmoqda. Ta'lim tashkilotini boshqarish nafaqat ma'muriy jarayonlarni tashkil etish, balki jamoani ruhlantirish, innovatsion fikrlashga yo'naltirish, sifatli xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish hamda ota-onalar, jamiyat va pedagoglar bilan samarali hamkorlik olib borishni ham nazarda tutadi. Hozirda rahbarning faqat boshqaruv ko'nikmalari yetarli emas, u jamoaning yetakchisi sifatida o'zgarishlarni boshqarishi, strategik qarorlar qabul qilishi, muammolarni hal etishi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi kabi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Shu bois malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish hozirgi davr bosqichida juda dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda, shiddat bilan o'zgarayotgan davr talablariga tayangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va maktabgacha ta'lim tizimida xodimlarning malakasini oshirish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish talablari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 531-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to'g'risida", 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish masalalari bilan R.H.Djurayev, S.T.Turg'unov N.Sh.Abdullayeva, T.N.Kalmuratov, Sh.N.Qosimova, G.N.Nigmatova, S.A.Olimov, A.Z.G'aniyeva singari ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning boshqaruv ko'nikmalarini samaradorligini oshirish, boshqaruv xodimlari kompetensiyalarini rivojlantirishning o'zaro aloqadorligi ilmiy asoslangan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ilmiy tadqiqotchilari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini takomillashtirishning o'ziga xos muammolarini o'rganish bilan V.A.Petrovskiy, L.S.Vigotskiy, Y.N.Aksenenko, G.M.Andreyeva, O.G.Marchukova, L.V.Taykova, Y.V.Markelova va boshqalar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan rahbarlarning liderlik sifatleri va kasbiy kompetentlik komponentlarini o'rganish borasidagi tadqiqotlari keng qamrovli bo'lib, bu sohada ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Masalan, G.Zimmel, H.J.Zenger, J.Folkman, W.Bennis, R.Stogdill va boshqa ko'plab tadqiqotchilar rahbarlarning kasbiy kompetentliklarini va ularning liderlik sifatlarini tahlil qilishga katta e'tibor qaratganlar.

Olib borilgan ilmiy nazariy tahlillar natijasiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv jarayonidagi liderlik sifatlarini takomillashtirish choralari, ahamiyati va ilmiy-metodik asoslari to'liq ochib berilmagan. Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini takomillashtirishni tadqiq etish dolzarb vazifa ekanligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual-metodologik masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan (2023–2025-yy.).

Tadqiqotning maqsadi malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari, tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashtirish;

malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning mexanizmini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida liderlik sifatlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov o'tkazish va natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, jami 478 nafar MTT direktori ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mazmuni, shakli, metod, vosita va mexanizmi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy, qiyosiy va taqqoslash), diagnostik (so'rovnoma, test, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik usullardan (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari boshqaruv tamoyillari va yondashuvlarining ilg'or xorijiy tajribalar tahlili asosida "lider", "liderlik", "liderlik sifatleri" kabi tushunchalarni ilmiy nazariy jihatdan asoslashga ko'ra liderlik tipologiyasini takomillashtirish orqali kengaytirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli strategik, tizimli va kommunikativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minotni tabaqalashtirilgan asosda ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmi tanqidiy fikrlash, faollik va ishonchli imijni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar hamda amaliy treninglar to'plamini o'quv-seminar jarayoniga integratsiya qilish orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalarini baholash jarayoni

– liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashni va metodik tavsiyalarni o‘z ichiga olgan “Men liderman” metodikasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining tanqidiy fikrlash, faollik va ishonchli imijni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar hamda amaliy treninglar to‘plamini o‘quv-seminar jarayoniga integratsiya qilish orqali liderlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan, zamonaviy talab va tamoyillarga asoslangan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining liderlik sifatlarini takomillashtirish” bo‘yicha seminar trening o‘quv dasturi ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida direktorlarning liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha “Ta’limda menejment” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK tavsiya etgan ilmiy nashrlar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, keltirilgan tahlillar hamda tajriba-sinov samaradorligi matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilganligi, zamonaviy ta’lim menejmenti va liderlik yondashuvlari integratsiyasiga asoslangan ilmiy model ishlab chiqilganligi, direktorlarning strategik fikrlash, samarali kommunikatsiya, jamoani boshqarish, motivatsiya yaratish, innovatsion faoliyatni tashkil etish hamda o‘zgarishlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining malaka oshirish dasturlarini liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodlar, interfaol ta’lim texnologiyalari, treninglar, keys-stadilar, kouching va mentorlik elementlari bilan boyitish imkoniyati yaratilganligi, direktorlarning jamoani samarali boshqarish, xodimlarni rag‘batlantirish, nizolarni konstruktiv hal etish, qarorlar qabul qilish va ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida quyidagi ilmiy-metodik natijalar olingan:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari boshqaruv tamoyillari va yondashuvlarining ilg‘or

xorijiy tajribalar tahlili asosida “lider”, “liderlik”, “liderlik sifatleri” kabi tushunchalarni ilmiy nazariy jihatdan asoslash orqali liderlik tipologiyasini takomillashtirishga ko‘ra kengaytirish negizida “Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorining liderlik sifatlarini takomillashtirish” o‘quv dasturi (seminar-trening) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 12-dekabrda 03-33-3375-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining individual rahbarlik imkoniyatlariga mos holda ularning liderlik sifatlarini rivojlantirishning metodik ta‘minoti boyitilgan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli strategik, tizimli va kommunikativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta‘minotni tabaqalashtirilgan asosda ishlab chiqish orqali takomillashtirilganligiga oid yangiligi asosida metodik tavsiyalar “Zamonaviy menejment usullari” va “Ta‘lim menejmenti” modullarining mazmuniga singdirilgan va amalda joriy etilgan (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 12-dekabrda 03-33-3375-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishda o‘quv jarayoni sifati va samaradorligi oshgan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmi tanqidiy fikrlash, faollik va ishonchli imijni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar hamda amaliy treninglar to‘plami asosida yaratilgan “Ta‘limda menejment” o‘quv qo‘llanmasi o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktabrda 387-sonli buyrug‘i). Natijada o‘quv modullari doirasida olib boriladigan trening va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bilan boyitish hamda rahbar kadrlarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘minlangan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalarini baholash jarayoni liderlik sifatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlashni va metodik tavsiyalarni o‘z ichiga olgan “Men liderman” metodikasi asosida takomillashtirishga oid ma‘lumotlar tajriba sinov jarayoniga tatbiq qilingan (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 12-dekabrda 03-33-3375-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida direktorlarning liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari samaradorligi oshgan va direktorlarda liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirilgan, shulardan 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta seminar-trening o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 2 ta, xorijiy va MDH mamlakatlari jurnallarida 1 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan hamda texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining liderlik sifatlarini takomillashtirishning pedagogik muammolari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar, direktorning liderlik sifatleri mazmuni va nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda jamiyatga zamonaviy, bilimli, axloqiy, tashabbuskor, tanlash sharoitida mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qila oladigan, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan rahbarlar kerak. Jumladan, harakatchanlik, dinamizm, konstruktivlik bilan ajralib turadigan hamkorlik xislatlariga ega kadrlar ham zarurdir. Maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida uning yangi sifatlarini ta'minlay oladigan ijodkor, tashabbuskor kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Yangi me'yoriy hujjatlar ushbu muammolarni hal qilishga qaratilmoqda.

Biz tomondan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida “lider”, “liderlik”, “sifat” va “liderlik sifatleri” tushunchalari aniqlashtirildi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar ishlari o'rganildi. Shu o'rinda ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruvdagi o'rniga ham e'tiborni qaratdik.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda liderlik sifatleri rivojlanganligi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda rivojlantirishning yaxlit tuzilmasi hisoblanadi. Bu jarayonda esa rahbarning liderlik sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining liderlik sifatlarini rivojlantirishning boshqaruvga ta'siri juda katta va ko'p qirrali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida eramizdan avvalgi minginchi yillarning o'rtalarida yaratilgan “Avesto”, O'rxun-Enasoy bitiklari, qomusiy olimlarimiz Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, shuningdek, o'zbek, MDH davlatlari va xorijiy davlatlar olimlari asarlari tahlil qilindi.

Ko'plab xorijiy olimlar xususan, B.D.Parigin fikriga ko'ra, liderlar ko'proq guruhning faoliyatiga aloqador bo'lgan qarorlar qabul qiladi, rahbar esa ijtimoiy

tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makromuhitning elementi hisoblanadi. Vigotskiy shunday deydi: “Liderlik sifatlarini rivojlantirish – bu insondagi tug‘ma boyliklarning yangilanishi, yangi bilimlarning hosil bo‘lishi, ya’ni avval mavjud bo‘lmagan sifatlarini rivojlantirish jarayonidir. E.Bogardus “Yuqori intellektual iste’dodlar shaxsga ertami kechmi yuksak mavqeni beradi”, deb hisoblagan. R.Stogdill bu haqida “Inson faqat shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli yetakchiga aylanmaydi” deb, ta’kidlaydi.

“Lider” so‘zining turli tillardan tarjimalari, lug‘atlarda berilgan izohlari, olimlarning ushbu so‘zga bergan ta’riflaridan kelib chiqib, “lider” so‘zi quyidagicha ifodalandi. “Lider” – bu shaxsiy sifatlar, bilim, tajriba, tashabbuskorlik, boshqaruv qobiliyatlari va ijtimoiy ta’sirga asoslangan ma’lum bir guruh, jamoa yoki tashkilot ichida boshqalarga ta’sir o‘tkazib, ularni muayyan maqsadlarga yo‘naltira oladigan shaxs. Shuningdek, “liderlik sifatleri” tushunchasiga, quyidagicha ta’rif berildi: liderlik sifatleri – bu shaxsning jamoani boshqarish, motivatsiya berish, strategik qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishishda samarali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish qobiliyatlari majmuasidir. Ular orasida tashabbuskorlik, mas’uliyat, muloqotchanlik, qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalarni ilhomlantirish ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda rahbarning liderlik sifatleri tasnifi ko‘rib chiqildi.


MTT direktorlarida liderlik sifatlerini rivojlantirishning eng maqbul yo‘li bu qo‘shimcha o‘quv kurslari yoki boshqa turdagi tashqi mashg‘ulotlar emas, balki malaka oshirish jarayoni hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining malakasini oshirish jarayonida liderlik sifatlerini rivojlantirish ularning tashkilotni boshqarishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki lider rahbar birinchi navbatda o‘zi bilan birga ishlaydigan odamlarning ehtiyojlarini, motivatsiyasini, bilim saviyasini, dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini, orzu umidlari va talablarini mukammal o‘rganib chiqadi. Rahbarda liderlik sifatleri mukammal rivojlangan bo‘lsa, u doimiy ravishda o‘z bilim saviyasini va malakasini oshirib boradi, o‘z xatti-harakatlarini obyektiv baholaydi, kuchli tomonlaridan o‘rinli va unumli foydalanadi, shaxsiyatidagi va professional sohadagi kamchiliklarini bartaraf etadi. Shuningdek, lider o‘z hamkasblarining ishonchini qozonadi, shaxsiy fundamental va ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘ladi, insoniy his-tuyg‘ular, aql-idrok va muhim ishchanlik sifatlerini o‘zida mujassam etadi.

Biz ilmiy tadqiqot ishlarimiz doirasida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatleri bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarida o‘tkazgan anketa-so‘rovnomalari orqali quyidagi muammo va kamchiliklarni aniqladik:

- murakkab vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni yechish uchun o‘z vaqtida, asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatining yetishmasligi;
- malakasi yuqori bo‘lmagan direktorlarda jamoani boshqarishda liderlik sifatleri yetishmasligi va ular tajribasizligi uchun ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelayotganligi;
- ish faoliyatida boshqalarga ta’sir qilish qobiliyatlari yetishmasligi;

- xodimlarni boshqarishda ular bilan ishlash qobiliyati yetishmasligi, muammoli xodimlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishi;
- ish faoliyatida o‘zini boshqarishda muammolarga duch kelishi ya’ni o‘z his-tuyg‘ularini samarali boshqara olmaslik, boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olmaslik, nizo va mojarolarni hal qila olmasligi;
- tashkilotga rahbarlik qilishda maqsadlarni anglay olmaslik, o‘z xohishlarini bilmaslik, uzoqni ko‘ra olmaslik holatlari mavjudligi;
- ko‘p holatlarda rahbarlar ish faoliyatini tashkil etishda xodimlarning fikrlarini inobatga olmasligi, xodimlarni rag‘batlantirish usullaridan foydalanishni bilmaslik;
- boshqaruvda qiyin vaziyatlar yuzaga kelganda ulardan chiqib keta olmaslik, stressga tushishga moyillik holatlari;
- faoliyat davomida etika qoidalarini unutib qo‘yish, emotsional tuyg‘ularni boshqara olmasligi;
- fikrlarini va o‘z g‘oyalarini jamoa xodimlariga, hamkasblariga aniq va samarali yetkazishda kommunikativ qobiliyati yetishmasligi;
- maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqaruvchi rahbarlarning ko‘pchilik qismi o‘zlarini lider deb hisoblamasligi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutiga malaka oshirishga kelgan tinglovchilarda boshqaruvga oid o‘qitiladigan “Personalni boshqarish”, “Boshqaruv psixologiyasi”, “Zamonaviy menejment usullari” o‘quv modullari tahlil qilindi. Shuningdek, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining lavozim yo‘riqnomasidan kelib chiqib, direktorning professiogrammasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. MTT direktori professiogrammasi.


Qator tadqiqotlarga ko‘ra, 70 ga yaqin liderlik fazilatlarini aniqlangan. Ammo ularning sonini belgilab chiqish deyarli imkonsiz vazifadir. Shuning uchun, biz o‘z

tadqiqot ishimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv jarayoniga ta'sir qiladigan eng muhim liderlik sifatleri tanlandi (2-rasm).

Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy liderning farqlari, xorijiy davlatlardan Germaniya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlandiya davlatlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining malaka oshirish jarayonlari, direktorlarning liderlik sifatlarini rivojlantirish tizimi qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmi”** deb nomlangan bo'lib, malaka oshirish jarayonida direktorlarning liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli asosida rivojlantiruvchi seminar-treninglar orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari liderlik sifatlarini rivojlantirishning takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan va uning mazmuni yoritib berilgan.

Ushbu bobda rahbarlik va liderlik farqlari, liderlik tipologiyasi, liderlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va yondashuvlar ishlab chiqilgan.



2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining liderlik sifatleri

Liderlikning turlari, roli, faoliyat tabiatini o'rganib chiqib, liderlik tipologiyasi o'rganildi. Ular quyidagicha: avtoritar lider – yakka qaror qabul qiladi, nazorat kuchli, tartib-intizomga urg'u beradi; demokratik lider – jamoa bilan maslahatlashadi, fikr almashishga ochiq, ishtirokni rag'batlantiradi; liberal lider – erkinlikni ustun qo'yadi, kam aralashadi, tashabbusni boshqalarga beradi; transformatsion lider – ilhomlantiradi, o'zgarishlarga yo'naltiradi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi; xarizmatik lider – shaxsiy jozibasi bilan ta'sir ko'rsatadi, shaxsga suyanadi; empatik lider – jamoa ehtiyojlarini oldinga qo'yadi, xizmat qilishga tayyor.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

Individuallikka yo'naltirilganlik – har bir MTT direktorining shaxsiy ehtiyojlari, yetakchilik darajasi va rivojlanish yo'nalishlarini inobatga olish.

Amaliyotga yaqinlik – o'rganilgan nazariy bilimlar rahbarning kundalik ish faoliyatida qo'llaniladigan holatlarga asoslanishi kerak.

Uzluksizlik va tizimlilik – maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining liderlik sifatlarini rivojlantirish bir martalik emas, balki doimiy va tizimli jarayon bo'lishi zarur.

Innovatsion yondashuv – yangicha fikrlash, raqamli texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullarini o'rganish va qo'llash.

O'z-o'zini tahlil qilish – MTT rahbari o'z liderlik faoliyatini tahlil qilishi, xavfni baholay olishi, tavakkal qilishga tayyor bo'lishi, xatolarini anglab, to'g'rilashga intilishi kerak.

Hamkorlikda rivojlanish – boshqa MTT rahbarlari, trenerlar, direktor o'rinbosarlari bilan fikr almashish, tajriba o'rganish va amalda qo'llash.

Liderlikni real faoliyatda ko'rsata olish – malaka oshirishdan keyin o'z tashkilotida liderlik faoliyatini amalda tatbiq qilish imkoniyati bo'lishi kerak.

Muvaffaqiyatli jamoani tashkil qilish – muvaffaqiyatli jamoa tashkil etish uchun ishonchli xodimlarni tanlash, jamoaviy qadriyatlarni shakllantirish va jamoa muhitini yaratish kerak.

Stressga chidamlilik – lider stressga chidamli bo'lishi, muammolarga moslashuvchan yondashishi va ruhiy barqarorlikni saqlashi kerak.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar: transformatsion liderlik, servant liderlik, innovatsion liderlik, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli liderlik, emotsional liderlik tamoyili. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va tamoyillar rahbarlarning nafaqat boshqaruv qobiliyatini oshirish, balki innovatsion, kommunikativ va strategik tafakkurini shakllantirishga ham qaratilgan.

Transformatsion, innovatsion, raqamli, kompetensiyaviy, emotsional liderlik kabi yondashuvlar rahbarlarning zamon talablariga moslashishiga yordam beradi. Shu sababli, rahbarlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ushbu yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining

MAQSADLI BLOK



Ijtimoiy buyurtma. Davlat talablari va maktabgacha ta'lim tizimi ehtiyoji.



Maqsad. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish.

KONSEPTUAL BLOK

Liderlik:

mazmuni
sifatlarini
c) xususiyatlari
d) xorij tajribasi

Liderlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari

individuallikka yo'naltirilganlik, amaliyotga yaqinlik, uzluksizlik va tizimlilik, innovatsion yondashuv, o'z-o'zini tahlil qilish, hamkorlikda rivojlanish, liderlikni real faoliyatda ko'rsatish, muvaffaqiyatli jamoani tashkil qilish, stressga chidamlilik

Liderlik sifatlarini rivojlantirish yondashuvlari

transformatsion liderlik, servant liderlik, innovatsion liderlik, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli liderlik, emotsional liderlik

TASHKILIY-JARAYONLI BLOK

Didaktik ta'minot

"Ta'limda menegment" o'quv qo'llanmasi, "MTT direktorining liderlik sifatlarini takomillashtirish" seminar-trening o'quv dasturi

O'quv jarayonini tashkil etish shakli

"Zamonaviy menegment usullari" va "Ta'limda menegment" moduli doirasida (An'anaviy ta'lim)

O'quv jarayoni shakllari

Mavzular bo'yicha seminar-treninglar, master-klasslar

O'quv jarayoni metodlari

"Men liderman" metodikasi, "Chamadonlarni qadoqlash", "Akvarium"

O'quv jarayoni vositalari

Didaktik vositalar, texnik vositalar, o'quv-o'yin vositalari

NATIJAVIY BLOK

Baholash va natija

Baholash mezonlari:

- Strategik rejalashtirish
- tashkilotchilik
- boshqaruvchanlik
- kreativlik
- kommunikativ

Baholash metodlari:

- pedagogik kuzatish
- individual va guruh suhbatlari
- so'rovnomalar
- tajriba-sinov ish natijalarini matematik va statistik tahlil qilish

Baholash darajalari:

- tanqidiy
- standart
- maqbul
- optimal

Natija: liderlik sifatleri rivojlangan MTT direktori

3-rasm. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish modeli

liderlik sifatlarini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik model ishlab chiqishni talab qiladi.

Bizning tadqiqotimiz mazmunida modellashtirish jarayoni ta'lim mazmunini, texnologiyalarni va model samaradorligini baholash metodikalarini tanlash va qurish bilan bog'liq, bu maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarida liderlik sifatlarini shakllantirish modelini struktura-mazmuniy sifatida xarakterlaydi. Biz tomondan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayoni modeli ishlab chiqildi (3-rasm) va uning quyidagi komponentlari mazmuni ochib berildi:

Zamonaviy ta'lim va ehtiyoj. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak saviyada tashkil qilish va o'tkazish, boshqarish bo'yicha yuqori liderlik sifatlariga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga bo'lgan ehtiyojdir.

Ushbu talab va ehtiyojlarni o'rganish asosida hamda so'rovnomalar o'tkazish orqali MTT direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Maqsad. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish orqali boshqaruvni modernizatsiya qilishni maqsad qilib qo'ydik.

Konseptual blok. Liderlikning mohiyatini ochib beruvchi hamda liderlik sifatlarini rivojlantirish uchun asosiy tamoyillar va yondashuvlar ko'rsatib berilgan.

Tashkiliy-jarayonli blokda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida 18 soatlik maxsus o'quv dasturi ishlab chiqildi. O'quv dasturi bo'yicha seminar-trening va mahorat darslarining ishlanmalari hamda o'quv materiallari, shuningdek, "Ta'lim menejmenti" nomli o'quv qo'llanma yaratilib, amaliyotga joriy qilinganligi aks ettirildi.

Natijaviy blokda liderlik sifatleri rivojlantirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktoriga ega bo'lishimiz kerak. Izlanishlarimiz natijasi sifatida biz tavsiya etgan takomillashtirilgan mexanizm yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga erishilganligini qayd qilish mumkin (4-rasm).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining ish faoliyatini tahlil qilish va ularning liderlik sifatlarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha o'tkazgan izlanishlarimiz hamda ishlab chiqilgan model asosida biz maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining liderlik sifatlarini rivojlantirishning mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmga ko'ra, birinchi bosqichda malaka oshirishga kelgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlaridan liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid so'rovnoma o'tkazilib, ular uchun rivojlantirilishi zarur bo'lgan sifatlar bo'yicha ehtiyojlar aniqlandi. Ehtiyojlar so'rovnoma va suhbat asosida aniqlanib, umumlashtirildi. Shu bilan birga, bugungi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga qo'yilgan talablar, ularning lavozim yo'riqnomalari ham o'rganildi.

Ikkinchi bosqichda har bir MTT direktorining liderlik sifatleri darajalari "Men liderman" test-metodikasi orqali aniqlandi.

Uchinchi asosiy bosqich rahbarlarning liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, bir nechta qismlardan iborat. Dastlab aniqlangan talab va ehtiyojlar asosida qisqa muddatli 18 soatlik seminar-trening dasturi ishlab chiqildi. Kurs boshlanishida kirish va oxirida yakuniy so‘rovnoma o‘tkazildi. Liderlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli o‘quv kurslarida mahorat darslari va rivojlantiruvchi treninglar tashkil qilindi.

Har bir o‘tkazilgan mashg‘ulotlar natijasi tahlil qilib borildi. O‘quv kurslaridagi seminar, treninglar va mahorat darslarini o‘tkazish jarayonida “Learning by doing” konsepsiyasi, “Akvarium”, “Chamadonlarni qadoqlash”, “Liderning tana tili” kabi innovatsion metodlardan, rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanildi. O‘quv kurslari va treninglar o‘tkazilib bo‘lingandan keyin kouching metodini qo‘llab, tinglovchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda loyiha ishini bajarish bosqichiga o‘tildi.

Ushbu mexanizmni amaliyotga joriy etish maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining: strategik fikrlash qobiliyatini, boshqaruvda qaror qabul qilish samaradorligini, jamoa bilan muloqot qilish sifatlarini, innovatsion faoliyat, kreativlik, tashkilotchilik ko‘rsatkichlari, motivatsiya berish qobiliyati, emotsional intellekt sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Sifatli trening jarayoni ko‘p qirrali bo‘lishni tashkil etadi. Birinchi navbatda, MTT direktorida o‘z-o‘zini rivojlantirishga qiziqish uyg‘otish lozim. Trening MTT direktorida shaxslararo o‘zaro hamkorlikni samarali shakllantirishga, o‘zining liderlik sifatlarini oshirishga yo‘naltiriladi.

Rivojlantiruvchi treninglarni 5 bosqichga ajratdik:

1. Tayyorlov bosqichi. Ushbu bosqichda MTT direktorlari treningning maqsad va vazifalari bilan tanishadilar. Guruhdagi ishtirokchilar bir-birlari bilan hamda trening o‘tkazuvchi trener-o‘qituvchi bilan tanishishadi. So‘ngra trener ishtirokchilar bilan anketa-so‘rovnoma o‘tkazadi. Anketa-so‘rovnoma orqali ishtirokchilarning liderlik sifatlarining qay darajada rivojlanganligi aniqlanadi.

2. Treningni o‘tkazish jarayoni. Biz dissertatsiyada treningda qo‘llaniladigan bir qator mashqlarni bajarish tartibini yoritib berdik.

3. Yakuniy bosqich. Ushbu bosqichda hamkorlikdagi muhokamada trening yakunlari keltiriladi, treningni o‘tkazish chog‘ida vujudga kelgan ma’lum bir qiyinchiliklar aniqlanadi.

4. Baholash bosqichi. Ushbu bosqichda o‘tkazilgan test natijalari va trenerning respondent bilan ishlagan jarayonida bergan bahosi umumlashtirilib, liderlik sifatleri rivojlanganlik darajasi baholanadi, shuningdek, birinchi bosqichda berilgan so‘rovnoma natijalari bilan tahlil qilinadi.

5. Tahlil bosqichi. Ushbu mexanizmnda eng muhim bosqichlardan biri bu beshinchi bosqich bo‘lib, MTT direktori o‘zining liderlik sifatlarining rivojlanganligini amaliy faoliyatida namoyon qilishidir. Bunda direktor ma’lum vaqtdan keyin o‘zining faoliyatini o‘zi baholab, qanchalik darajada liderlik sifatleri rivojlanganligini tahlil qilishi lozim.

MALAKA OSHIRISH JARAYONI



4-rasm. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish va natijalariga matematik-statistik ishlov berish jarayoni yoritilgan.

Biz tomondan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutiga malaka oshirishga kelgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov jarayonida jami 478 nafar MTT rahbari ishtirok etdi.

2023–2025-yillar davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda o‘tkazildi va ijobiy natijalarga erishildi.

Birinchi bosqichda MTT direktorlarida liderlik sifatleri rivojlanganligining mavjud holatini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Aniqlangan muammolarga asoslangan holda malaka oshirish jarayonida ularning liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarida liderlik sifatlarining mavjud darajasini baholashda “Men liderman” metodikasidan foydalanildi. 478 nafar respondent tajriba va nazorat guruhlariga bo‘lingan holda, 245 nafar respondent bilan 18 soatlik seminar-trening o‘tkazildi. Seminar-treningda liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha haftada 2 martadan 9 kunlik mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Seminar-trening yakunida esa direktorlarning liderlik sifatleri rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun “Men liderman” metodikasi o‘tkazildi.

